

VIRUSLI GEPATIT C QO'ZG'ATUVCHILARI

Rahimova Madina Sobir qizi

i45786883@gmail.com

Sharifov Ruslan Bobomurod o'g'li

sharifovruslan86@gmail.com

Abdullayeva Laylo Sayfulla qizi

r25332701@gmail.com

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Davolash fakulteti talabalari

Annotatsiya: Gepatit C virusi 1989-yili AQSHda Coog va Yaponiyada Arimolar o'z hamkasblari bilan bemor qon zardobidan hepatit C virusini ajratib olishga muvaffaq bo'ldilar. Bu virus ko'pgina xususiyatlarga ko'ra Flaviviridae oilasiga kiritilgan. GepatitC virusining o'lchami 35-80nm, qobig'i bor, genomi bir ipli musbat RNK dan iborat. GepatitC boshqa o'tkir hepatitlar orasida 6-48,5% ni, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 5,1% ni tashkil etadi. Gepatit C virusi parenteral yo'l, yo'ldosh va jinsiy aloqa orqali yuqadi. Yashirin davri bir necha haftadan 5 oygacha. O'tkir hepatit C 50% dan ko'proq hollarda surunkali shaklga o'tadi. Shundan 20% bemorlarda jigar serrozi rivojlanadi. Bu virus jigarning birlamchi raki paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. GepatitC ga tashxis qo'yishda kasallikning klinik belgilariga, biokimyoviy tekshirishlarga hamda qon zardobida hepatit C virusiga qarshi antitelolarni IFA va RIA usullarda aniqlaadhga asoslaniladi. Hozir kasallikni yashirin davrida qondagi virus RNK sini PSR usuli yordamida 5-6 soat ichida aniqlash mumkin. Davolashda, asosan, interferon qo'llaniladi. Maxsus davosi va profilaktikasi ishlab chiqilmagan.

Kalit so'zlar: hepatitC interferon, jigar serroz, qon quyish, kamqonlik, TTV, PSR, parenteral yo'l, kapsid, sariqlik, RNK, virus, infeksiya, astenovegetativ, dispeptik, artraljik asoratlari, jigar, mushak, isitma.

Virusli hepatitlar muammosi bugungi kunda tibbiy virusologiyani eng dolzarb muammolaridan biridir. Hatto so'nggi 25-30yil ichida A B C D E F G hepatitlarning Virusli hepatit aniqlanishi va ularning fizik-kimyoviy, biologik va klinik-epidemiologik xususiyatlari o'rganilmoqda. Virusli hepatitlar yengil, o'rta va og'ir, shuningdek asoratsiz va asoratli, o'tkir, surunkali hamda vaqt-vaqti bilan qaytalanib turadigan shakllarda kechadi; ba'zan aralash xillari ham kuzatiladi. Virusli hepatitning qo'zg'atuvchilari A dan G ga va TTV(transfusion transmitted virus) viruslarning 8 tipi ajratilgan. Homilador ayollar va bolalarda kasallik og'irroq kechadi. Virusli hepatitlarning shakli-shamoyili turlicha: grippga o'xshash, dispeptik, astenovegetativ, artraljik alomatlar, aralash sindromlar bilan hamda latent (klinik belgisiz). Kasallik

grippga o'xshab boshlanganda bemor to'satdan qaltiraydi, eti uvishadi. boshi og'riydi, harorati ko'tariladi, a'zoyi badani qaqshaydi, yo'taladi va h.k. Dispeptik alomatlar bilan boshlanganida bemor ko'ngli aynib qusadi, me'da sohasida bir oz og'riq bo'ladi, ba'zan ichi ketadi; uning madori qurib, ishtahasi pasayadi, o'ng qovurg'asi ostida og'riq paydo bo'ladi. Astenovegetativ alomatlar bilan boshlanganda bemorning boshi aylanadi, og'riydi, ko'p terlaydi, o'ta injiq, yig'loqi bo'lib qoladi. Virusli gepatitlarning boshlang'ich davri qanday sindrom bilan kechishidan qat'i nazar, shu kasallikka xos 3 belgi kuzatiladi:

1) siydikning pivo rangida bo'lishi;

2) axlat rangining oqarishi;

3) ko'pchilik deyarli 90% hollarda jigarning kattalashishi. Gepatit C - butun dunyoda o'lim holatlari oshishiga sabablardan bo'lib, sog'liqni saqlash sohasi uchun ulkan muammodir. Shifokorlar gepatitni sokin epidimiya deb ataydilar. Har yili gepatitdan 700 ming inson hayotdan ko'z yumadi. Unga qarshi vaksina hali ishlab chiqilmagan.

Etiologiyasi. Gepatit C virusi Hepacivirusturiga Flaviviridae oilasiga mansub. Gepatit C virusi-murakkab tuzilgan RNKga ega sferik shakldagi virus. O'lchamlari diametric 35-50 yoki 55-65nm. Gen bir chizikli ortiqcha-RNK ipi bilan ifodalanadi, katta o'zgaruvchanlikka ega, kapsid va superkapsid bilan qoplangan. Virusning 14ta genotiplari aniqlangan, ularning har biri muayyan mamlakatlarga "bog'langan". Misol uchun, AQShda gepatit C virusi 1 turi, Yaponiyada-2 tarqalgan. Eng virulentligi kuchlisi 1b genotipi hisoblanadi. Gepatit C qon quyish (2 / 3 hollarda) transplansetar (10%), jinsiy yo'l bilan (7%) yuqadi. Kasallik ko'pincha AQShda (barcha transfuzion gepatitlarining 90% gacha) va Afrikada (25% gacha) qayd etiladi. Kasallikning sariqlik bo'lmagan shakllari mavjud bo'lib, qonda alanintransferaza ko'payishi bilan kechadi. Ammo o'tkir shaklda infeksiyani yengillashishiga qaramasdan, 50% hollarda jarayon sirroz va jigar karsinomasining rivojlanishi bilan surunkali holatga o'tadi. Surunkali holatga o'tish aniq hujayra immunitetining yo'qligi bilan bog'liq. Gepatit C virus limfa tugunlarida doimiy mavjud bo'lgan virusli infeksiya, deb taxmin qilinadi.

Epidimiologiyasi. Gepatitning o'tkir va surunkali belgilari bor. O'tkir bosqichda 65% insonlarda aniq belgilar kuzatilmaydi. Kasallik rivojlanib borishi bilan belgilar ham yaqqolroq namoyon bo'la boshlaydi. va 2-12 hafta davom etadi. Ular qorinning yuqori qismida og'riq, ayniqsa o'ng tarafda, siydik rangining to'q bo'lishi, rangsiz axlat (oqimtir), sariqlik (ko'z va terida), ko'ngil aynishi, va ichak faoliyatining buzilishi, charchoq, biroz isitma, titroq, mushaklardagi og'riq, ishtaha yo'qolishi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, bo'g'imlardagi og'riq kabilar bilan kechadi. Surunkali bosqichida bemorlar odatda aniq belgilersiz holda yillar davomida yashaydilar. Bu bazan "yashirin gepatit C" deb deb ataladi. Natijada yallig'lanish va chandiq (jigar serrozi) bilan birga faol surunkali gepatit rivojlanadi. Kasallik davolanmasa, jigar serrozi, jigar

yetishmovchiligi, va jigar saratoni rivojlanadi hatto o'limga ham olib keladi. Surunkali gepatitC belgilari quyidagicha: zaiflik, charchoq, ko'ngil aynishi, ishtaxaning yo'qolishi, mushak va bo'g'imlardagi og'riq, vazn yo'qotish. Jigar zararlanganda o'z funksiyasini bajara olmaydi. Jigar funksiyalarini bajara olmaydi. Jigar funksiyalari qondagi zaharli birikmalarni parchalash, infeksiyalar bilan kurash, dori vositalarini parchalash, ba'zi muhim oqsillarni sintez qilish, qon ivish omilini ishlab chiqish va vitamin, mineral yog' va uglevodlarni depoi qilib saqlashdir. GepatitC virus bilan kasallangan shaxsdan boshqa shaxsga yuqadi. Virus hayvonlar yoki hasharotlardan yuqmaydi. Gepatit C virusi asosan qonda va zararlangan kishining o'ziga xos boshqa tana suyuqliklarda oz miqdorda mavjud. Virus hozirda eng ko'p inyeksiya uchun ishlatilgan igna almashinuvi sabab yuqadi. 1990-yilga qadar virus, odatda, qon quyish orqali yuqgan. Hozirda qon quyish orqali yuqish xavfi deyarli yo'q, donorlik qoni avvalo tahlil qilinadi Virusli gepatit qon bilan yuquvchi kasalliklar guruhiga kiruvchi kasallik bo'lib 80% holatda parenteral yo'l bilan yuqadi. Jinsiy , maishiy aloqa, vertikal yuqish hollari ham kam uchraydi. Jinsiy yo'l bilan yuqish mumkinligi virusning qondan tashqari bosqha biologic suyuqlilarda sperma, bachadon shillig'ida ham topilishi mumkin. Vertikal yuqishda virus onadan homilaga homiladorlik paytida yoki tug'ilish paytida yuqoishi mumkin.

Virusli gepatitning davolashning asosi parxez va kun tartibiga rioya qilishdir. Surunkali C virusli gepatitda jigar kasalliklarida qo'llaniladigan 5-parxez stoli tayinlanadi. Iste'mol qilinadigan taomlar oson hazm buladigan bulishi kerak..Go'sht yog'siz qiyma va qaynatib pishirilgan holda tavsiya etiladi. Parxez jigar faoliyatini tez tiklaydi va uning himoya kuchini oshiradi. Bugungi kunda organism uchun zararsiz bulgan C gepatitga qarshi samarali dori vositalari yartildi. Yaqinda kashf qilingan dorilar: Ombitasvir- Paritaprevir-Dasabuvir-Ritonavir, Ombitasvir-Paritaprevir-Ritonavir, Daklastavir. Bu preparatlar interferon talab qilmaydi va tez muddatda ko'p odamlarni davolaydi. Dastlabki ikki dori faqat kasallik rivojlanishining erta bosqichlarida tavsiya etiladi, chunki ular jigarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Interferon va Ribavinn gepatit C ni davolash asosiy vosita edi. Ular charchoq shamollash belgilari, kamqonlik, teridagi toshmalar, ruhiy tushkunlik, ko'ngil aynishi, va diareya kabo nojo'ya ta'sirlar chaqirishi miumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Mikrobiologiya , virusologiya va immunologiya-2019 I.M.Muhammedov, Sh.R.Aliyev, J.A.Rizayev, Sh.A.Xo'jayeva.
- 2) Klinik mikrobiologiya-2016 I.M.Muhammedov
- 3) Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya-2015 I.M.Muhammedov, E.H.Eshboyev, M.M.Zokirov.
- 4) Mikrobiologiya-2005 I.Y.Gariyev
- 5) Mikrobiologiya-2005 V.T.Emsev.
- 6) Mikrobiologiya-2011 A.G'anixo'jayeva, H.Nazarov.
- 7) Internetdagi malumotlar